

Xodimlarning jismoniy tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi

// 14.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xodimlarning-jismoniy-tayyorgarligi-va-amaliy-ko-nikmalari-s>




Favqulodda holat vaqt, joy tanlamaydi. Ishlab chiqarish jarayonidagi ko'ngilsizliklarning oldini olish muhim vazifa. Kutilmagan vaziyatlarda esa to'g'ri qaror qabul qilish va tezkorlik bilan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Korxonaning harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi xodimlari ishtirokida 911-sexda bo'lib o'tgan navbatdagi o'quv amaliy mashg'uloti ham favqulodda vaziyatlarga shaylikni oshirishga qaratildi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi avariya holati natijasida kimyoviy zaharlanish kuzatilganda soha vakillari amalga oshiradigan hatti-harakat sinovdan o'tdi.

Mashg'ulotga maxsus transport vositalari ham jalb etildi.





"NAVOIYAZOT" AJ AXBOROT XIZMATI